

IJTIMOIY SOHANI MOLIYALASHTIRISHDA MAHALLIY BYUDJETLARNING ROLI

Kamalov Ulugbek

Qoraqalpoq davlat universiteti, 3-kurs talabasi

Аннотация. Ушбу мақолада ижтимоий соҳани молиялаштиришда маҳаллий бюджетларнинг роли хусусида сўз юритилади.

Калит сўзлар: солиқ, кичик бизнес, молия, даромад, бюджет, фоиз, шартнома, тажриба.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль местных бюджетов в финансировании социальной сферы.

Ключевые слова: налог, малый бизнес, финансы, доход, бюджет, процент, договор, опыт.

Abstract. This article examines the role of local budgets in financing the social sphere.

Key words: tax, small business, finance, income, budget, interest, contract, experience .

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish respublika va hududiy organlarning huquqlari va vazifalarini ancha o'zgartiradi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishning bu bosqichida hududiy rivojlanish va isloh qilishning asosiy vositalari sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi huquqlari va vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirib borish zarur [1]. Ayni paytda, mahalliy byudjetlar daromadlarining o'sishi umumiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan orqada qolayotganligi davlat byudjeti daromadlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlashning amaldagi mexanizmini takomillashtirish, daromadlar bazasini hududlar o'rtasida taqsimlashning amaldagi holatini yanada yaxshilash, byudjet tuzilmasining bo'g'inlarida daromadlar bazasini oshirish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni davom ettirish, samarali va oqilona yechimlarni izlab topish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.



Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-extiyojlarni to'larok, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiyotning yuksalish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri mahalliy xo'jalik zahiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijrosini ta'minlashga yordam beradi [2].

Mahalliy byudjetlarning davlat byudjeti tizimidagi o'rni mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos bo'lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan yana biri - bu joylarda aholining iqtisodiy aktivligini oshirishga imkoniyatlar yaratish, shuningdek jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatidan olayotgan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirib borish bilan bog'liqdir. Jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadini soliqqa tortish stavkalarini mahalliy hokimiyatlar tomonidan mustaqil o'rnatiladi. Bunda eng avvalambor stavka o'rnatishda barcha yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun teng sharoit yaratish, daromadlarni to'liq soliqqa tortilishini ta'minlash zarurdir. Shuningdek, ushbu soliq stavkalarini inflyatsiya darajasiga qarab o'zgartirib borish maqsadga muvofiqdir. Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxs larning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z



davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan.

Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi [3]. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy byudjetlarning o'z daromad manbalari (soliqlari) ko'payib qolsa, umumdavlat soliqlaridan ajratma berishning xojati kolmaydi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona moxiyatga ega bo'lib, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida umumdavlat pul resurslarini taqsimlash asosida mahalliy byudjetlar mustaqilligi va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llabquvvatlash tamoyili yotadi. Ulardan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlar tartibga soluvchi daromad manbalari hisobiga shakllantiriladi. Shu bilan birga, umumdavlat soliqlarining ayrim turlari ham mahalliy byudjetlarni to'ldirish manbai sifatida mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirilishi mumkin.

Tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalar normativlari yuqori hokimiyat organlari tomonidan mahalliy byudjetlar xarajatlari umumiy summasi va ularning birlashtirilgan daromadlari hajmiga qarab belgilanadi. Hozir ham respublikamiz mahalliy byudjetlari daromadlarida hajmi va iqtisodiy mazmuni bo'yicha asosiy o'rinni tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalar egallaydi. Ularning roli nafaqat mahalliy hokimiyat organlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, balki mahalliy byudjetlarning yuqori byudjetlarga mablag'lar safarbar etishga qiziqishini va xududlardagi ishlab chiqarish sifatini oshirishi bilan ham belgilanadi [4].

Mahalliy byudjetlarni tartibga solishning mavjud tizimida bir qancha afzalliklar bor. U mahalliy ishlab chiqarish darajasiga qaramasdan mahalliy byudjetlarni zarur mablag'lar bilan ta'minlashga imkon beradi, alohida xududiy birliklar rivojlanishi darajasini muvofiqlashtirish uchun zamin xozirlaydi, mahalliy hokimiyat organlarini umumdavlat soliqlari rejasini bajarishga rag'batlantiradi. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar xududlarda yig'iladigan ushbu soliqlar miqdoriga nisbatan foiz hisobida belgilanadi. Tartibga soluvchi daromadlarni hajmini aniqlashda mahalliy byudjetlarning birlashtirilgan daromadlari va xarajatlarining o'rtasidagi farqni asos qilib olinishi ajratma foizlarining turlicha bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Chunki mahalliy byudjetlarning



rejalashtirilgan daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish maqsadida ajratma foizlarini kamaytirishga olib kelsa, aks xolatda foizlarni oshishiga olib keladi.

Hukumat umumdavlat soliqlardan mahalliy byudjetlarga ajratmalar ajratish orqali mahalliy hokimiyat organlarining ushbu soliqlarni o'z vaktida va to'liq undirilib olishdagi manfaatdorligini ta'minlash ham zarurdir. Chunki davlat byudjeti daromad manbai milliy daromad xududlarida yaratiladi. Shu sababli milliy daromadni mahalliy hokimiyatlar o'rtasida optimal taqsimlanishiga erishish tartibga soluvchi daromadlarni miqdorini belgilashda muxim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Халмуратов, К. П. (2022). АНАЛИЗ ДИНАМИКИ ИНФЛЯЦИИ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(22), 62-64.
2. Xalmuratov, K., & Kamalov, U. B. (2023). MAMLEKET BYUDJETI QARJILARINAN NATIYJELI PAYDALANIWDI TAMIYNLEW JOLLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 180-184.
3. Халмуратов, К. П. (2022). ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ОБЛАСТИ КРЕДИТОВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 58-62.
4. Халмуратов, К. П. (2022). Анализ бюджетной системы в развитии экономики Республики Узбекистан. *Ta'lim fidoyilari*, 7(8), 618-625.